

O'ZBEKİSTON İQTİSODİYOTINI PUL-KREDİT SIYOSATI YORDAMIDA TARTIBGA SOLISH YO'NALİSHLARI

Mustafoyeva Zarnigor Azamat qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti Makroiqtisodiyot yo'naliishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslarita bozor mexanizmlari, majburiy zaxira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash, Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: bank, moliya, institutlar, resurslar, bozor, mexanizm, zaxira, talablar, operatsiyalar, tijorat, hisob, stavkas, depozitlar.

Pul-kredit siyosati - hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta'minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam sak/gab turishga qaratilgan chora-tadbirlari. Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Pul-kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko'pay-tiriladi, inflyasiyann pasaytirish chora-tadbirlari ko'riladi. Markaziy bank Pul-kredit siyosatini olib borishda pul bo-zoriga to'g'ridan-to'g'ri – o'zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta'sir o'tkazishi mumkin.

Pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi. Bevosita vositalar – moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to'g'ridanto'g'ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit kurinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmi nazorat qili-nadi. Bilvosita vositalar – Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslarita bozor mexanizmlari (majburiy zaxiratalablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta'sir etiladi.

Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o'sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo'lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki, aksincha, tushirishga xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zaxiralarning bo'lishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati Pul-kredit siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtga kelib davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini amalga oshirishda davlat moliyasining ahamiyati yanada yuksaldi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarini ta'minlash, xalqning moddiy va ma'naviy jihatdan farovon turmush tarziga ega bo'lishi uchun zarur shartsharoitlar barpo qilish, davlat organlarini mablag' tomonlama ta'minotini qoplash, davlatni idora qilish singari sohalarda yetakchi vosita sifatida o'rinn egalladi. Monetar siyosat tushunchasi inglizcha sanaladi. Bizda esa pul-kredit siyosati deb talqin qilinadi. Pul-kredit siyosati – pul-kredit organlarining makroiqtisodiy siyosati, pul bozori shart-sharoitlari (qisqa muddatli foiz stavkasi, nominal valyuta kursi yoki joriy likvidlik darajasi) orqali yalpi talabni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bank sektorining yakuniy kombinatsiyasiga erishish, jumladan, narxlar barqarorligi, barqaror ayriboshlash kursini saqlab qolish, moliyaviy jihatdan ham barqarorlik va muvozanatli iqtisodiy o'sishni rag'batlanirish hamdir.

• Hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo‘li, mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini, uning samarali faoliyatini ta’minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosati deb yuritiladi. Pul-kredit siyosati — davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sanaladi va odatiy hollarda uni Markaziy bank amalga oshiradi. Pul-kredit siyosati orqali

muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartirilishiga erishiladi yoki ko‘paytiriladi. Inflyatsiyani pasaytirish chora-tadbirlari ko‘riladi. Markaziy bank pul-krediti siyosatini olib borishda pul bozoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri — o‘zining boshqaruven vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta’sir o‘tkazishi mumkin. Pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi:

1) Bevosita vositalar — moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mayjud depozit ko‘rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmini ham nazoratda tutadi.

2) Bilvosita vositalar — Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslarita bozor mexanizmlari (majburiy zahira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta’sir etadi. Bularidan tashqari, Markaziy bank foydalanadigan vositalarning har biri foiz stavkalarining o‘sishiga, kreditlash va qarz olish hajmini kamaytirishga, lozim bo‘lganda foiz stavkalarini oshirishga yoki aksincha, tushirishga xizmat qiladi. Ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy eng kam zahiralarning bo‘lishi, hisobga olish siyosati, valyuta siyosati pul-krediti siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Pul-kredit siyosati haqida gapirganda, albatta uning ob’yeqtleri va sub’yeqtlarini qatordan tushirib qolmaslik lozim. Negaki, pul-kredit siyosatining ob’yeqt va sub’yeqtleri qaysidir ma’noda uning «tana a’zolari» hisoblanadi. Shu boisdan quyida pul-kredit siyosatining ob’yeklari hamda sub’yeqtlariga alohida urg‘u berib o’tamiz:

Pul-kredit siyosatining ob’yeqtleri:

- pul-kredit organlari;
- banklar;
- nobank tashkilotlarining harakatlari natijasida o’zgaruvchan pul bozoridagi talab va taklif.

Pul-kredit siyosatining sub’yeqtleri:

- Markaziy bank;
- Markaziy bank o’zaro aloqada bo’lgan iqtisodiy agentlar;
- moliya tizimi faoliyatida ishtirok etuvchi banklar va boshqa moliya institutlari

Bugungi kunda jamiyatning iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotganligi valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘pgina jihatdan pul-kredit siyosatini yuksaltirish, tijorat banklari faoliyatini yanada mustahkam qilish va albatta, bank tizimini ham rivojlantirish sohasidagi choralarining naqadar samaradorli ekanligiga chambarchas bog‘liqidir. Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqib, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir necha qaror va farmonga buyruq berdilar. Xususan, «Valyuta bozorini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonlarining e’lon qilinganiga u qadar ko‘p vaqt bo‘lmay, davlatimiz rahbarining «Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari qavul qilindi. Hamda pul-kredit siyosatini 2017-2021- yillar davomida rivojlantirish va inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha ham chora-tadbirlar Kompleksi o‘z tasdig‘iga ega bo‘ldi Respublika rahbarining tashabbusi bilan tasdiqlangan ushbu konsepsiya 2018-2021-yillar uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar «yo‘l xaritasi»ni qamrab oladi. Ayni mana shu yillar qamrovi doirasida pul-kredit siyosati orqali ham davlat moliyasining barqarorligini ta’minlash borasida natijakor ishlar

amalga oshirilishi ham nazarda tutiladi. Bundan tashqari mazkur yo'l xaritasini ishlab chiqishda asosiy e'tiborni inflayatsion targetlashni mexanizm va tamoyillarini o'rta muddatli istiqbolda samarali tadbiq qilish uchun joiz bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha choralarни amalgа oshirish ishlari jalg qiladi.

Pul-kredit siyosati makroiqtisodiy barqarorlik va uning rivojlanishini ta'minlashda ham o'z o'rniga egadir. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-krediti siyosatining ahamiyati iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, «kredit portlashi» ehtimoli va moliyaviy beqarorlik bilan bog'liq salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida ham iqtisodiyotni pul-kredit siyosatining maqbul darajasini ta'minlash zarur. Bunday sharoitda malakali makroiqtisodiy boshqaruvning ham ahmiyati yuqori. Ushbu jarayonning asosiy tarkibiy qismalaridan biri samarali pul-kredit siyosatidir. Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi asosiy vositasi boshqaruv yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan asosiy stavka hisoblanadi. Ushbu vositaning ko'magi bilan Markaziy bank pul bozori kurslariga ta'sirini ko'rsatadi. Operatsion maqsad — pul bozori kurslarini asosiy kursga yaqinlashtirish bo'ladi. Bu maqsadga erishish uchun bank tizimida likvidlikni boshqarish uchun pul-kredit siyosati vositalari majmuasidan foydalaniadi. Mamlakatda ichki narxlarning barqaror ekanligining ta'minlanganligi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'ladi. Iqtisodiy islohotlarni imkon qadar jadal sur'atlarga chiqarish va yuksaltirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalgа oshirishda zaruriy sharoit ham hisoblanadi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligiga zamin yaratish hisoblanadi. Bunda «milliy valyuta barqarorligi» tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining chet el valyutalariga nisbatan barqarorligi yoxud uning ichki xarid qobiliyati barqarorligi deya talqin qilish mumkin.

* Al mashuv kursining erkin shakllanishi sharoitida milliy valyutaning barqarorligi uning ichki harid qobiliyatini saqlash orqali erishiladi. Bunda, erkin suzib yuruvchi almashuv kursi iqtisodiyotni ichki barqarorlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi bilan bog'liq tashqi shok va qiyinchiliklar kuzatilganda almashuv kursining mos ravishda o'zgarishi ekportyorlar va import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy maqsadini ikki xil tushunilishini oldini olish va uning faoliyati asosiy yo'nalishini aniq belgilab olish maqsadida qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi ko'zda tutilgan. Alovida qayd etish lozimki, narxlar barqarorligi deyilganda, nol darajadagi yoki salbiy infyatsiya ko'rsatkichlari nazarda tutilmaydi. Narxlar barqarorligi deyilganda, narxlarning turg'un holatda turishi emas, balki ularning past darajada o'sishi tushuniladi. Bir qarashda narxlarning turg'un turishi maqbul ko'rinsa-da, narxlarning past va barqaror o'zgarishi iqtisodiyotning samarali faoliyati uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Pul-kredit siyosatini amalda muvaffaqiyatli joriy qilish uchun, kelajakda faqat yuqori natijani ko'zlash maqsadida bir necha metodlarga murojaat etish ham albatta zaruriy amaliyotdir. Bunga anqlik kiritish uchun hozirgi vaqtida pul-kredit siyosatining keng miqyosda tarqalib ulgurgan quyidagi usullarini keltirsh o'rini:

* Markaziy

bankning rasmiy diskont stavkasining o'zgarishi (hisob yoki diskont siyosati);

* kreditlarning ayrim turlarini tartibga solishning tanlangan usullari;

* banklarning majburiy zahiralari normalarini o'zgartirish;

* ochiq bozor operatsiyalari (veksellarni, davlat obligatsiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish);

* banklar uchun iqtisodiy standartlarni tartibga solish (naqd pul zahiralari va depozitlar, o'z kapitali va ssuda kapitali hamda aktivlari o'rtasidagi bog'liqlik va boshqalar);

* alohida banklar yoki kreditlar uchun bank kreditlari hajmini bevosita cheklash (kredit shiftlari deb ataladigan);

* hisob siyosati;

* kredit tashkilotlarini qayta moliyalashtirish;

* pul masssasining o'sishi uchun mezonlarni belgilash. Iqtisodiyotni kreditlashni kengaytirish yoxud aksincha, qisqartirish orqali Markaziy bank pul massasining barqaror va mo'tadil o'sishiga erishadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining mos ravishda o'sishi bilan narxlarning barqaror darajasini ta'minlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B./ The effektivnenes of financial and monetary instruments of sustainable devolopement in Tadjikistan'S./ Economy and ways of improving them./ Journal of internet Banking &Commerce.2016. Vol.21 Issue 3, p1-13./ 13p.
3. Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild./2000-yil.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul-kredit_siyosati